«Uzbekistan Airways» AJ sizni havo kemasi bortida ko‘rib turganidan benihoya mamnun

2022 9 May

Ikki yillik tanaffusdan so‘ng yo‘lovchilarga Uzbekistan Airways jurnalining yangi nashrini taqdim etayotganimizdan xursandmiz. Jurnalimizning may oyidagi ilk sonida O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan Qoraqalpog‘iston haqidagi eng qiziqarli faktlarni topasiz.

Ushbu ajoyib mamlakat har bir mehmonni o‘ziga xos tabiati, noyob qadimiy an’analari va zamonaviy hayoti bilan hayratga solishiga ishonchimiz komil. Ko‘pchilik uchun Qoraqalpog‘iston olisda joylashganligi sababli sirli va yetib bo‘lmaydigan joy bo‘lib qolmoqda. Ammo bugungi kunda ushbu makon nafaqat tadbirkorlar, ekologlar va yuqori san’at ixlosmandlari uchun, balki butun dunyodagi yoshlar uchun ham o‘ziga jalb etadigan haqiqiy markazga aylanib bormoqda.